



Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib,
maqolni davom ettiring.

... achitib gapirar, ... kuldirib.



Do'st do'stga oyna

Quddus Muhammadiy

Erkinjon degan o'g'il
Maqollar mag'zin nuqul
Chaqqani chaqqan ekan,
Chaqishga chaqqon ekan.
Qani, o'ylang ne ekan,
Do'st do'stga oyna ekan?
Ma'nosin agar uqsang,
Bir-biriga ko'z demak,

Bir-biriga do'st demak,
Do'st bo'lishib o's demak.
Agar odam bir-birin
Bilib insonlik qadrin,
Qo'llab-quvvatlashmasa,
Bir-birin anglashmasa,
Hech ishni uddalolmas,
Maqsadiga yetolmas.



Do'stlikning sharofati,
Qo'shqo'l bo'ldi qanoti.
Oyga ham olib bordi,
Fazo olamin oldi.

Yer, zaminni qamradi,
Olam ilmin jamladi.
Olam oila bo'ldi,
Ko'rkam bir oyna bo'ldi.



uqsang – tushunib olsang
uddalolmas – bajara olmas

nuqul – doim
mag'zin – mazmuni



1. Do'stlik deganda nimani tushunasiz?
2. “Do'st do'stga oyna ekan” iborasini qanday tushundingiz?
3. Insonlar nima uchun bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari kerak?
4. Do'stlar yordamida qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?
5. Sizing do'stingiz bormi? Do'stingizning yaxshi xislatlarini sanab bering.



**Qofiyadosh so'zlarni aniqlang.
Quyidagi so'zlarga qanday
qofiyadosh so'zlarni bilasiz?**

*qanoti-
oyna-*

*do'st-
nuqul-*



Rasmlar orasidan she'r muallifini toping.





1. She'ni ifodali o'qing.
2. Maqollarni o'qing va mazmunini izohlang.

Do'st uzoqda bo'lsa ham, ko'ngli yaqin.

Do'st do'stga boqar, suv soyga oqar.

3. Do'stlik haqida yana qanday maqollar bilasiz?



Matnni o'qing. She'r mazmuni bilan qanday bog'liqlik borligini aniqlang.



Kim bilan do'st bo'lish kerak?

Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'st bo'lish mumkin:

1. Ilmli kishilar bilan do'st bo'ling. Chunki ular o'z hayotlarini ilm-u odob bilan o'tkazadilar.
2. Olijanob kishilar bilan do'st bo'lishga harakat qiling. Ular do'stlarining aybini yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Yolg'iz qolganda do'stining aybini o'ziga aytib, tuzatishga yordam beradilar.

3. Beg'araz va mard kishilar bilan o'rtoqlashing. Ularning do'stliklari haqiqiy bo'ladi. Do'stlikdan foyda ko'rishni o'ylamaydilar.

(“Sharq rivoyatlari” dan)



Juft bo'lib ishlang. Partadoshingizning yaqin do'sti haqida ma'lumot to'plang.



Hikoyani so'zlab berishga tayyorlaning.